

**O'QUVCHILARNI ONGLI KASB TANLASHIGA YERISHISHDA
ALLOMALAR ASARLARIDAN FOYDALANISH**

Xayitgul Muzaffarova

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maxsus pedagogika kafedrası p.f.f.d., (PhD)

Qushmurodova Sajida

Maxsus pedagogika, defektologiya (logopediya)

Mutaxassisligi II-bosqich magistri

Ma'lumki, jamiyatda har qanday voqea va hodisa, hamda bu jarayonning sababchisi bo'lmish har bir shaxs o'zining qaysidir bir xususiyatli tomoni yoki o'z tanlagan kasbining ustasi bo'lmish bilan kishilar ongida hamda tarixda ma'lum bir iz qoldiradi. Buyuk shaxslar tomonidan aytilgan o'gitlar o'smir yoshlarni to'g'ri yo'ldan og'ishmay ildam qadam bosishlarini ta'minlasa, ularning olib borgan ilmiy izlanishlari esa kelajak avlodni bilim zahirasini boyitib borishlarida dasturi amal bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarini qobiliyat qiziqish va moyilliklarini to'g'ri tashxislab tashxis xulosalaridan kelib chiqqan holda ularni to'g'ri va ongli kasb tanlashlariga yerishish, ko'maklashish xalk ta'limi tizimining dolzarb masalalaridan biridir. O'spirinlik yoshi davridagi har bir shaxsda kasblarga, kasb tanlashga bo'lgan qiziqish, ishtiyoq va moyilliklar o'zining eng yuqori bosqichiga ko'tariladi. Bu davrda o'spirinlar psixologiyasi o'zgacha emosionallik kasb etadi. Bu holat o'spirinlarda psixologiyasi har qanday voqea va hodisalarga kuchli his tuyg'u (ta'sirlanish) bilan musnosabat bildiriladi, o'ta qiziquvchanlik kayfiyati ishonuvchanlikning ortishi axborot to'plash va uni almashtirishga bo'lgan ishtiyoqning ortishi, o'zi uchun nufuzli kasb (yoki sohani) aziz deb bilgan kishilarni ideallashtirishga bo'lgan moyillikning paydo bo'lishi kabi ehtiyojlarning keskin namoyon bo'lishi kabi ehtiyojlarning tuyg'unlik kasb etish tarzida ko'rinadi.

O'smir o'quvchilarning yuqoridagi ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltirishda va to'laqonli qondirishga erishish o'smirlarning komil inson bo'lib yetishishlari uchun ko'maklashish yo'lida qo'yilgan dastlabki qadamdir. O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'lmaganliklari boisdan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlagan yoki tanlashi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxsiy fazilatlarini talab qilishni tushunib yetmaydilar. Ular layoqatlarini oqilona baxolashga qurbi yetmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallashda qanday tezlikda va aniqlikda xarakter qilishligini sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining tuvofivlashishi va shu kabi bayon qilib o'tilgan xatolarga yo'l qo'yadilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko'ngilsiz xatolarning oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun

vuyidagi pedagogik-psixologik va ijtimoiy xususiyatli umumiy tomonlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- o'smir o'quvchilar ehtiyojlari yo'nalishini to'g'ri idrok etish va to'g'ri tashxis qo'yish.

- ushbu ehtiyojlarga qo'yilgan tashxis xulosalariga asoslangan holda ta'sir o'tkazishning eng muhim va kompleks tarkibini ishlab chiqish.

- bu borada o'smir o'quvchilarga berilayotgan axborotlar ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirishga erishish.

- o'smir o'quvchilarning individual – psixologik xususiyatlarini psixodiagnostik metod va metodikalar yordamida o'rganish va tashxis qo'yish.

- o'smirlarning kasblarga bo'lgan qiziqishlari, moyilliklari, kasbiy yo'nalganliklari maxsus psixodiagnostik metodlar yordamida aniqlash va aniq tashxis qo'yish.

- kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tariflash va lo'nda qilib ifodalash.

- kasbiy marifat yuzasidan tashviqot ishlarini olib borish, o'quvchilar bilan kasbga doir individual konsultasiyalar – maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota onasi bilan maslahatlar uyushtirish.

- O'spirinlarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilarlari hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish.

- mehnat malimi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr muhabbat uyg'otish.

- psixodiagnostik va kasb tanlashga metodlarning amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

- kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilar. Bundan tashqari yuqoridagi masalani ijobiy tus olishida buyuk ajdodlarimizning kasb haqida bildirgan oqilona fikrlari haqida ham o'quvchilarga doimiy ravishda axborot berib turish muxim ahamiyat kasb etadi. SHu boisdan ham quyida buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar haqidagi fikrlari yuzasidan mulohaza yuritib o'smir o'quvchilarga allomalarimizning kasb-hunar egallashga bo'lgan munosabatlari hamda bu boradagi ularning hayotiy tajribalari xususida bildirgan fikrlariga sharh berishga harakat qilamiz.

Qadimiy an'analarimizga binoan hunarmand va me'mor, naqqosh, dehqon va chorvador to'quvchi va nonvoy, ustoz va shogird munosabatlari amalga oshib kelmoqda.

Dono xalqimiz "ustozidan o'tmagan shogird shogird emas", "hunarli kishi aslo hor bo'lmas", "ustoz otangday ulug'" singari iboralarini ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo'lib ulg'ayishlarini orzu qilganlar. SHu o'rinda yuqorida

keltirilgan maqollarning ma'nosini psixologik nuqtai nazardan tahlil qilsak, ushbu o'g'itlarning yosh avlod (o'smirlar) ongida qanchalik darajada ta'sir kuchiga ega ekanligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan dono xalqimizning ustozdan o'zmagan shogird – shogird emas deya aytgan fikrlari zahirida ham kuchli psixologik ta'sir kuchi yotadi. Ushbu fikrning ma'nosini tafakkur eta oladigan har qanday kasb egasini ushbu so'zlar o'z ustida ko'proq ishlashga, bilim ko'nikma va malakalarni boyitishga, kasbining yangidan yangi qirralarini izlab topib taraqqiy ettirishga, umuman olganda o'z kasbining betakror kishisi darajasiga yetishishiga undaydi. Psixologiya tili bilan aytganda ushbu iboraning ta'sir kuchi kishi uchun biror bir faoliyatini yuqori darajada amalga oshirishga undovchi kuch, ya'ni motiv vazifasini o'tashligidadir.

SHuningdek, “hunarli kishi aslo xor bo'lmas” degan ibora kishilarni kasb hunarning foydali jihatlari kelajak poydevori ekanligi haqida ogoh etsa, “ustoz otaday ulug'” iborasi o'zgacha tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarni bildirib, qimmatli maslahatlar berganlar, chunonchi ta'lim so'z va ko'nikmadan (iborat ish) majmui, tarbiya va amaliy malakalardan iborat ish harakat ekanligini, muayyon kasb hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb hunarning chinakkam shaydosi bo'lishini aytgan. Mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. CHunki u kishilar faoliyatining asosiy qismini band etish bilan birga, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi muhim omillardan biri bo'lib hisoblanadi. SHaxs ehtiyojlarining qondirilishi esa uning psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. SHaxsning bunday ta'sirlar ostida qolishi uning ruhiy zo'riqishiga stress holatlariga tushib qolishiga olib keladi. Buning doimiyliги natijasida esa shaxs psixologiyasida kuchli buzilishlar ro'y berib, u o'z o'zidan jamiyatdan ajralib qoladi. Olim ham yuqoridagi fikrlar orqali, shaxsda yuz berishi mumkin bunday ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishning birdan – bir yo'li ham biror bir kasb egasi bo'lishlikdir deb ta'kidlaydi.

O'ylaymizki, hozirgi kundagi yoshlarimiz ham ushbu fikrlardan to'g'ri hulosani chiqarib, o'z vaqtida biror bir kasb egasi bo'lishsa foydadan holi bo'lmas edi. Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik – psixologik qarashlari ilmiy asosga qurilgan bo'lib, u bolarning fe'l atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini yaratgan hamda murabbiy ota onalarga uni qattiq tan jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma'qulligini ko'rsatgan. Mutafakkirning “Donishnoma”, “Risola ishq”, “Uy xo'jaligi”, “Tib qonunlari” asarlari odob – axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Buning boisi ham yuqoridagi asarlarda mujassam har bir fikrning hayotiy kasb etishi va uning to'laqonli egallaganligidadir. Mutafakkir ilgari surgan g'oyalar: yana shunisi bilan qimmatliki, ular hozirga qadar kishilar hayotiy faoliyatida

muxim foydalanish quroli sifatida as qotmoqda. Bundan tashqari mutafakkirlarning mehnatsevarlik tarbiya borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o'rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o'rgansa, uni hayotga tadbiiq eta olsa va mustaqil hunari tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina, otasi uni uylantirib qo'ymog'i lozim deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unga nafaqat ahloqiy hislatlar, balki xarakterni irodaviy hislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o'spirinlarda sabr – bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik kabi insoniy sifatlar ham shakllanadi. O'spirinlarda ushbu sifatning mavjudligi ularning komil inson bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Ibn Sino har bir insonning mijoz (temperamenti) dan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlarigagina egadir, unga o'xshagan insonlar kamdan kam bo'ladi. SHu sababli ham psixologiya fanida shaxsning individual – psixologik xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun ushbu xususiyatlar kasb tanlashga ta'sir etuvchi omillardan biri sifatida qaraladi. XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Xojib o'zining “Qutadg'u bilig” asarida inson va uning xayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo'lib voyaga yetishi uning ajdodi va kelib chiqishiga xayotda shug'ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog'liqligini aytib, kimning nasli otadan boshlab toza bo'lsa, undan elga yaxshilik, ko'p manfaatlar keladi deb hisoblaydi. Darhaqiqat, Yusuf Xos Xojibning ushbu ibratli so'zlari ko'pgina hayotiy va psixologik isbotga ega mutafakkirning fikrini hayotiy isbotini dono xalqimiz “Ot izini toy bosar”, “Ota qilgan ishini farzand albatta qiladi”, “O'zingni ko'rmoqchi bo'lsang farzandinga boq” kabi bir qator ibratli maqollari bilan oydinlashtirishga intiladi. Yuqoridagi fikrlarni psixologik nuqtai nazaridan quyida quruqroq isbotlashga harakat qilamiz.

Ma'lumki, har bir o'g'il qizni dunyoga kelishi bilan birinchi galda o'z ta'sir doirasiga oluvchi muhit bu – Oila muhitidir. Bu muhitning ta'sir o'tkazuvchi sub'ktlari bo'lib o'sha oilada muqim (muntazam) yashovchi a'zolari (shaxslar) bo'lib hisoblanadi. CHunki ular o'z oila a'zolariga uzluksiz ravishda har qanday vaqtda va vaziyatda, har qanday uslubda ham ma'nau, ruhan umuman olganda har tomonlama ta'sir o'tkazish huquqiga, qudratiga, imkoniyatiga egadir.

SHu boisdan ham bu borada ularning zimmasiga farzand kamolotini ta'minlashdek ulkan ma'suliyatli vazifa yuklatiladi. Bu vazifani ado etishda ulardan ziyraklik, zukkolik, extiyotkorlik, bilim, ko'nikma va malakalar, tarbiyalanganlik kabi insoniy sifatlar talab etiladi. CHunki ular buning uchun nafaqat o'zlari oldida balki, davlat va jamiyat oldida ham javobgardirlar.

Yuqorida ta'kidlangan masalani ijobiy hal etish yo'lida, o'zbek, rus, chet el atoqli psixologlari yillar davomida tajribalar olib borganlar va olib bormoqdalar. Tajriba

natijalariga ko'ra, ular ota-onalarga bu harakatni amalga oshirishda quyidagi asosiy vazifalarga alohida e'tibor berish samarali natijalar beradi deb ta'kidlaydilar.

- "Namuna" uchun avval o'zida ibrat qilib ko'rsatishga arzigulik shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirish.

- Oila a'zolariga ta'sir o'tkazishda ya'ni ta'lim tarbiya berishda ularning yosh davri xususiyatlarini inobatga olish.

- Ushbu jarayonda etnik xususiyatlarni inobatga olgan holda ta'sir ko'rsatish.

- Farzandlarga ta'sir ko'rsatishda ularning harakter xususiyatlariga alohida e'tibor berish.

- Berilgan topshiriq natijalari va bajarilishini diqqat bilan kuzatish, rag'batlantirib turish.

- Farzandlarga Vatanga sadoqat mehr oqibatlilik or-nomuslik kabi bir qancha insoniy tuyg'ularning shakllanishiga ko'maklashish.

- Farzandlarning oiladan tashqarida munosabatga kirishuvi muhiti (do'stlari, qarindoshlari) bilan uzviy aloqada bo'lib turish.

Iste'dodli shoir, yetuk tarixchi, mohir tarjimon Muhammad Rizo Ogahiy o'zining ijodiy faoliyatida o'g'il va qizlarning aqliy, hissiy va jismoniy imkoniyatlarini g'oyat ziyraklik bilan kuzatgan holda, tuyg'ularning fe'l atvorini osonroq aniqlash, yoqimsiz hatti-harakatlarni bartaraf etish mumkin degan hulosaga keladi. Ogahiy o'z davridagi kasb-hunar sohalari, xalq udum va an-analariga o'zining qimmatli fikrlarini bildirgan. U xalq an-analari hamda urf odatlari to'g'risida izohlar berar ekan, turli kasb ustalarining inson kamolotidagi ahamiyatini birma bir ta'riflab beradi.

Bundan tashqari XII-XVI asrlarda yashab ijod etgan mutafakkir allomalardan Jaloliddin Rumi, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, risolalarida, falsafiy psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid qimmatli fikrlar talaygina. Shuningdek, XX-asrning yetuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim tarbiya va tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rni ularning o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlarga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb korning sirlarini egallashi ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

Xalqimizda ajoyib odat bor, kishilarning bir biri bilan tanishuvi hol-ahvol so'rashidan muomala maromidan boshlanib, kasb-hunar kasbkorni aniqlash istagi bilan tugaydi. Shuning uchun shaxsni o'rganish chog'ida uning tarjimai holiga jiddiy e'tibor berish, u bilan puxta tanishish, qanday jamoat ishlarida qatnashganligini va shu kungacha diqqat bilan o'rganish u yoki bu lavozimga loyiqligini aniqlash maqsadida uning qobiliyatiga oqilona baho berish talab qilinadi. SHu o'rinda yetuk ruhiyat bilimdoni Jaloliddin Rumiyning quyidagi ibratomuz fikrlarini keltirishni lozim deb

bildik. “Sen hamma narsani unutishing mumkin, yolg‘iz bir narsani – nechun dunyoga kelgansan, shuni unutmasang bas, shunda o‘zingni arzon sotmagaysan, illo bahoing doim baland bo‘lgay”. Ushbu jumladan tafakkur qiluvchilar uchun yetarli ma’no bor deb o‘ylaymiz. Mustaqil O‘zbekiston ishlarining bugungi kunga kelib, to‘g‘ri va ongli, o‘zlarining imkoniyatlariga mos kasb tanlashga erishib, har sohada erishayotgan yutuqlari ushbu fikrlarimizning yetarlicha dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma’naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilish natijasida ularning inson kamoloti, ma’naviyati va mehnatsevarlik hislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb hunarga o‘rgatishga taaluqli ibratli mulohazalar olsa bo‘ladi. Shu jumladan biz yoshlar mutafakkirning yuqoridagi fikrlaridan har sohada unumli foydalanishga harakat qilmoqdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Hamidova M.U. Maxsus psixologiya. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. T.: 2014 yil.
2. Po‘latova P.M. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: «Fan va texnologiyalar», 2014 y.
3. Muzaffarova, X. (2022). KO‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISH XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).
4. Muzaffarova, X. (2022). MAXSUS MAKTABLARDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI TANLAB OLISHDA DIFFERENSIAL YONDASHUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5).